

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BURXANOVA DILNOZAXON ILXOMJON QIZI

**QARINDOSHLIK ATAMALARI TIZIMIDA SUPPLETIV
MUNOSABATLAR**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philology sciences**

Burhanova Dilnozaxon Ilhomjon qizi Qarindoshlik atamalari tizimida suppletiv munosabatlar.....	3
Burhanova Dilnozaxon Ilhomjon qizi Supplemental relations in the system of kinship terms.....	25
Бурханова Дилнозахон Илхомжон қизи Супплетивные отношения в системе терминов родства.....	47
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	51

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BURXANOVA DILNOZAXON ILXOMJON QIZI

**QARINDOSHLIK ATAMALARI TIZIMIDA SUPPLETIV
MUNOSABATLAR**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2023

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil.1695 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.kspi.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Berdialiyev Abduvali

filologiya fanlari doktori, professor

Ilmiy rahbar:

Rasmiy opponentlar:

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich

filologiya fanlari doktori, professor

Raximov Usmonjon Ergashevich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli ilmiy kengashning 20 23 yil 26 09 soat 11:09 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan), (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 20 __ yil « __ » _____ kuni tarqatildi.

(20 __ yil « __ » _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi)



M.X. Hakimov

M.X.Hakimov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filol. f.d., professor

Sh.T. Akramov

Sh.T.Akramov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kоти, filol. f.a., dotsent

M.K. Hakimova

M.K.Hakimova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.(DSc), professor

KIRISH (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va uni yuzaga chiqaruvchi leksik va lisoniy birliklarning lug'aviy-mantiqiy tadqiqiga assotsiativ jihatdan yondashuv maslalariga keng etibor qaratilmoqda. Tillararo munosabatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, farqli va o'xshash jihatlari hamda leksik imkoniyatlari tahliliga oid qator tadqiqotlar yaratilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, tillararo farq, eng avvalo, ularning har biriga xos lug'at boyligi, ya'ni leksikasida ko'zga tashlanadi. Moddiy olamdagi voqea-hodisalar, ularning o'ziga xos belgi-xususiyatlari, turli xil tabiiy va notabiiy munosabatlar tilda turli xil leksik birliklar bilan ifodalanadi. Bu birliklar ma'lum bir etnik jamoa uchun xoslangan bo'lib, ulaning har biri o'ziga xos milliy kommunikativ vosita vazifasini bajaradi. Bu xususiyat bir oilaga mansub qarindosh tillar lug'atida ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Dunyo tilshunosligida tillararo lisoniy o'xshashlik va farqli xususiyatlarni belgilovchi lug'aviy qatlamlar va ularning ifodalovchi ko'plab lug'aviy birliklarning fonetik, leksik, semantik jihatlari tadqiqiga keng e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qarindoshlik atamaları va ularning semantik qurilishi bilan bog'liq lisoniy jarayonlar, lug'aviy suppletivizm tushunchasi va uning leksik ifodasi, mantiqiy assotsiatsiya, gipero-giponimiya, ekvonimiya va geteronimiya kabi mantiqiy-lisoniy tushuncha va hodisalar bilan bog'liq masalalarning ilmiy-nazariy asoslari yaratilmoqda. Bu esa zamonaviy tilshunoslikda dunyo tillarini bir-biriga, qisman bo'lsa-da, yaqinlashtiruvchi lisoniy vositalar, ularning grammatik qurilishi va lug'at tarkibida mavjud bo'lgan ayrim leksik qatlamlar, shuningdek, qavm-qarindoshlik ma'nolarini ifodalovchi ko'plab lug'aviy birliklar va ularning funksional xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini belgiladi.

Mamlakatimizda til sohasida olib borilayotgan islohotlar, ilm-fan sohasidagi rivojlanishlar "davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish"¹ hamda o'zbek tilini ilmiy asosda chuqur o'rganish kabi vazifalarni kun tartibiga qo'ydi. Turli tillar lug'at tarkibida ekstralingvistik va lingvistik asoslarda sezilarli farq qilmaydigan lug'aviy qatlamlarga xos qavm-qarindoshlik atamalarining mavjudligi, dunyo xalqlarining barchasida oila a'zolari o'rtasidagi tabiiy biologik hamda ijtimoiy yaqinlik deyarli bir xilligi til leksikasining qavm-qarindoshlik atamaları tizimining lingvistik tahlilini taqozo etadi. Bizga ma'lumki, insonlararo ijtimoiy yaqinlik ularning tabiiy-biologik yaqinligiga asos bo'lgan assotsiativ o'xshashlik zaminida shakllanadi. Qarindoshlik atamaları o'ziga xos mantiqiy va lisoniy xususiyatlari bilan lug'at tarkibining boshqa qatlam lisoniy birliklaridan farq qiladi. Mazkur qatlamga xos har bir so'z semantik qurilishida vertikal va gorizontaal chiziq qarindoshlikka xos ma'nolar sinxron-sinkret tarzda qorishgan bo'ladiki, lug'aviy birliklarga xos

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>

bunday murakkab jarayonlar bo'yicha maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu bois qarindoshlik atamaları va ularning o'ziga xos lug'aviy-mantiqiy xususiyatlarini lingvistik tadqiqi zamonaviy tilshunoslik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Ryespublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi "Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti"ni tashkil etish to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Hrakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 2- oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qarindoshlik atamaları til ilmining jahon miqyosida juda ko'p olimlar e'tiborini o'ziga tortgan muhim muammolaridan biridir. V.I.Abayev, M.M.Guxman, A.Ishayev, A.A.Pokrovskaya, I.Ismoilov, N.V.Bekpulatov, A.Mamedov, S.F.Mirjanova, K.M.Musayev, A.P.Dulzon, G.F.Sattarov, X.G. Yusupov, V.I.Sinsius² kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan va nashr etilgan ishlar buning dalilidir.

²Guxman M.M. "Доиндоевропейские" термины родства в германских языках. // В кн. Памяти академика Н.Я.Марра. –Л. –М., 1938. –124 с.; Гухман M.M. "Доиндоевропейские" термины родства в германских языках. // В кн. Памяти академика Н.Я.Марра. –Л. –М., 1938. –46с; Дульзон А.П. Термины родства и свойства в языках Нарынского края и Причулымья. // Ученые записки Томского госпединститута. 1954. –С.44-86. Т.ХІ; Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках. // В кн. Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Изд-во АН СССР, 1961. –С.11-81; Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. Тошкент: Фан, 1966. –150 б.; Джафаров Г. Употребление и изменения в значении терминов родства в современном азербайджанском языке. Канд.дис. –М., 1968 58с; Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари. //Ўзбек халқ шевалари луғати Тошкент: Фан, 1971. –Б.320-385; Саттаров Г.Ф. Лексико-семантические и тематические группы и разряды татарских лично-индивидуальных и семейно-родовых прозвищ. // СТ. 1971. № 3. –С.27-35.; Абаев В.И. О родовых отношениях и терминах родства у осетин // В кн. Энгельс и языкознание. –М.: Наука, 1971. –С.239-242; Цинциус В.И. К этимологии алтайских терминов родства. // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. –Л., 1972. –С.21.; Миржанова С.Ф. Термины родства в диалектах башкирского языка. // СТ. 1973. № 4. –С. 99-109; Мусаев К.М. Термины родства в современных западнокыпчакских тюркских языках. // В сб. Sprache geschichte end kultur der altaischen woukor. Berlin, 1974. –С.113-124; Джафаров Г. Термины родства в семантической системе и грамматической структуре языка. // СТ. 1974.; Маметов А. О терминах родства в крымскотатарском языке. // СТ. Баку. 1980. № 6. –С. 70-76; № 3. –С.29-32.; Юсупов Х.Г. Термины родства в башкирском языке. // В кн. Вопросы башкирской филологии.–М.,1959.–19с; Бекбулатов Н.В. Башкирская система родства. –М.,1981.–25с.

O‘zbek tilshunosligida ham qarindoshlik atamaları tizimi e‘tiborga loyiq darajada o‘rganilgan. Mazkur mavzuda e‘lon qilingan maqolalardan tashqari³ bir necha nomzodlik dissertatsiyalari doirasida tadqiq qilingan. Jumladan, M.Sh.Saidovanning⁴ mazkur mavzudagi dissertatsiya ishida qarindoshlik atamaları Namangan shevalari materiallari asosida o‘rganilgan bo‘lsa, A.A. Mashrabovning dissertatsiyasida u o‘zbek va qirg‘iz, H.H.Egamnazarov va V.V. Karimovalarning tadqiqotlarida o‘zbek va ingliz, B.A.Jabborov⁵ izlanishlarida esa o‘zbek va tojik tillari materiallari asosida qiyosan o‘rganilgan. A.Berdialiyevning⁶ bir necha ilmiy-ommabop maqolalari esa qarindoshlik terminlarining etimologiyasiga bag‘ishlangan. Shuningdek, olimning kuzatishlarida turkiy tilshunoslikda ilk bor qarindoshlik atamaları tizimiga xos suppletiv, gipero-giponimik, ekvonimik va geteronimik munosabatlar haqida ham ma‘lumot beriladi⁷.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejası bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo‘qon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari talqini” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi vertikal va gorizontall chiziq qarindoshlik ma‘nolari tizimiga xos suppletiv muqobillar va ularning giperonim, giponim, ekvonim hamda geteronim kabi mantiqiy-lisoniy hodisalarga munosabati masalalarini sinxron yo‘sında tadqiq etishdan iborat.

O‘rganilayotgan atamalar tizimini qarindoshlikning vertikal va gorizontall chiziq kabi guruhlarga ajratish, har bir guruhning erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga mansub va har ikki jins qarindoshlik ma‘nolarini o‘zida mujassam etgan, ya‘ni jinsga ko‘ra farqi neytrallashgan kabi ichki guruhlarni belgilash, har bir guruhga xos atamalarning suppletiv muqobillari va ularning lisoniy xususiyatlarini sharhlashdan iborat.

³Narziyeva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent ta‘hlili // Ÿzbek tili va adabi‘eti. Toshkent, 1986. № 5.–С.47-486.; Narziyeva M. Шахсни ёш белгисига кўра атовчи сўзлар группасининг ички классификацияси хақида // Ÿzbek tili va adabi‘eti. Toshkent, 1987.–956.; Saidova M.Sh. Qarindoshlik atamaları tarixiga doir // Ÿzbek tili va adabi‘eti. 1993. № 3. 23-876.; Saidova M.Sh. Singil terminining genезиси хақида // Республика ёш тилшуносларининг анъанавий илмий конференцияси материаллари. Toshkent, 1993.–Б.61-63.; Saidova M.Sh. Хотин қариндошлик атамалари ясовчи сифатида // Ÿzbek тилшунослигига оид тадқиқотлар. Мақолалар тўплами. – Toshkent, 1994. –Б.94.

⁴Saidova M.Sh. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. Toshkent, 1995. – 656.

⁵Mashrabov A.A. Значение терминов родства и их выражение в кыргызском и узбекском языках. Диссертация, представленная на соискание уч.степени к.ф.н., Бишкек,2000.–23с; Эгамназаров Х.Х. Термины родства и их функционально-семантические микросистемы в узбекском и английском языках. АДК. – Душанбе, 2010. –22 с; Джабаров Б.А. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках. АКД. –Худжанд, 2009. –26 с.; Каримова В.В. Аёл жинсидаги яқинлик ва қариндошлик маънолари мантикий лисоний категория сифатида. Филология бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Фарғона, 2020. – 8-156.

⁶Berdialiev A. Сўзлар оламига саёҳат. –Хужанд, 2013.–276; Бердиалиев А. “Подшо”ликка чек қўйган “почча”лар. –Хужанд: Меърож, 2017. – 356.

⁷Berdialiev A. Супплетивизм ва унга дахлдор баъзи тушунчалар хақида //Ÿzbek тилшунослигининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. 8 китоб. –Хужанд, 1996. –Б. 314; Бердиалиев А О гипонимических отношениях некоторых терминов родства в тюркских языках (на материале узбекского и кыргызского языков).//Научные труды Ошского госуниверситета. Общественные и гуманитарные науки. Вп.2. Ош, 1999. –С.41-46; Бердиалиев А. Супплетивизм лексического плана и его отношение к явлениям гипонимии и гетеронимических отношениях в тюркских языках (на материале терминов родства кыргызского языка).// Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Журнал научных публикаций. № 6(июнь). Часть1у. –Москва, 2016. –С.27-29

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tili qarindoshlik atamaları tizimini vertikal chiziq va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nolarini bildiruvchi ikki asosiy guruhiga mansub lisoniy birliklarini aniqlash;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlikni bildiruvchi atamalarni shaxsning jinsiga ko‘ra farqli qatlamlariga xos lug‘aviy birliklarni belgilash;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nolarini ifodalovchi atamalarning suppletiv valentligi bilan bog‘liq muqobillarini aniqlash va ularning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini sharhlash;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi atamalarning gipero-giponimik, ekvonimik va geteronimik munosabatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida o‘zbek tilidagi qarindoshlik atamaları, vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nalari tizimiga oid leksik birliklar olindi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nolarini bildiruvchi lug‘aviy birliklar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot obyektini sanalgan lisoniy vositalarning funksional-semantik jihatdan tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda komponent va etimologik tahlil kabi zamonaviy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilining leksik tizimida alohida lug‘aviy-mazmuniy maydon tarzida shakllangan qarindoshlik atamaları paradigmasini tashkil qiluvchi vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik guruhlari, ularning har biriga xos lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun planiga mansub genderiologik jihatlar asoslangan;

vertikal va gorizontal chiziq tizimiga xos qarindoshlik atamaları ma’nosining jinsga ko‘ra farqli va betaraf (neytrallashgan) guruhlari aniqlangan;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik atamalarıaro geteronimik xususiyatlar, ular ta’sirida shakllanuvchi juft so‘zlarning vazifa va ma’nalari, vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nosini bildiruvchi lug‘aviy birliklararo hosil bo‘luvchi ekvonimik munosabatlar, ularning lug‘aviy antonimiya bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari dalillangan;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik ma’nolarining bir lug‘aviy birlik semantik qurilishida sinxron-sinkretik mavjudligi va ularning lug‘aviy-mazmuniy variantlari ochib berilgan, vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik atamalarining etimologiyasi va ularning baynalminal xarakteri isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qarindoshlik atamaları tizimining vertikal va gorizontal chiziq kabi guruhlarga ajratilishi, ular paradigmasini tashkil etuvchi lug‘aviy birliklarni funksional-semantik jihatdan ichki guruhlarga ajratish va tavsiflash o‘zbek zamonaviy nazariy leksikologiyasining ravnaqi uchun xizmat qilishi asoslangan;

qarindoshlik ma’nosini bildiruvchi lug‘aviy birliklarning har bir til leksikasining ilk shakllangan qatlamlaridan biri ekanligi va ularning tillar paydo bo‘lishining “bolalar tili” faraziga muvofiq kelishi nuqtayi nazaridan baynalmilal xarakteri dalillangan;

vertikal va gorizontal chiziq qarindoshlik atamalarining etimologik tahlili o‘zbek leksikologiyasi etimologiya tarmog‘ining rivojlanishi uchun ahamiyatli ekanligi aniqlangan;

tadqiqot ishi «Leksikologiya», «Qiyosiy leksikologiya», «Lingvokulturologiya» kabi soha va tarmoqlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari yaratishga hamda leksikaning boshqa lug‘aviy qatlamlari, lingvokulturologik, mentalingvistik va psixolingvistik o‘ziga xosliklarni o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun ham ilmiy manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qarindoshlik atamalarining antroposentrik tadqiqini belgilashda, nazariy ma‘lumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, to‘plangan faktik materiallar mukammal metodlar asosida tasnif qilinib, ishonchli nazariy manbalar va tilshunoslikning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalanilgan holda, tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u til leksikasida ilk bor shakllangan lug‘aviy birliklarni o‘rganish uchun turtki bo‘la oladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot tufayli leksikaning boshqa qatlamlariga xos lug‘aviy birliklar va ularning suppletiv muqobillarini aniqlash va qarindoshlik atamalariga “yondosh” bo‘lgan shaxslararo turli xil ijtimoiy yaqinlik ma‘nolarini bildiruvchi lug‘aviy qatlamni monografik aspektida o‘rganishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar o‘zbek tilshunosligida ideografik va etimologik lug‘atlar tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining filologik yo‘nalishdagi talabalariga leksikologiya va uning etimologiya tarmog‘i bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilishda mazkur dissertatsiya natijalaridan maqsadga muvofiq foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qarindoshlik ma‘nosini bildiruvchi lug‘aviy birliklarning funksional-semantik va etimologik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek tili leksikasida alohida lug‘aviy mazmuniy maydon tarzida shakllangan qarindoshlik atamaları paradigmasini tashkil qiluvchi qarindoshlikning vertikal va gorizontal chiziq guruhlarga ajratish va tahlil qilish bo‘yicha olingan xulosalardan O‘zbekiston DUK “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Til millat ko‘zgusi” mavzusidagi eshittirishlarini efirga tayyorlashda samarali foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali eshittirishlarining 2022-yil 25-, 28-fevraldagi son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur teleradiokanal materiallarining mazmunan mukammallashuvi ta‘minlangan.

o‘zbek tili qarindoshlik nomlari tizimini funksional-semantik paradigma asosida o‘rganish, ularning bashariyat hayotida tutgan o‘rni va motivatsiyasini tadqiq etish bo‘yicha olingan xulosalardan “Erudit” maqsadli innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zR Mudofaa vazirligining 2022-yildagi № 10/947-son

ma'lumotnomasi) natijada qarindoshlik nomlari tahlilidan foydalanish asosida loyiha bo'yicha bajarilgan tadqiqotning mukammal bo'lishiga erishilgan.

gorizontal chiziq qarindoshlik atamalarini ular anglatgan shaxslarning jinsiga ko'ra farqli guruhlarga, shuningdek, ma'nosida jinsga ko'ra farqi betaraf (neytrallashtirilgan) guruhlarga ajratib tahlil maydoniga tortish bo'yicha olingan xulosalardan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi" doirasida foydalanilgan (O'zR Madaniyat vazirligining 2022-yildagi № 1/124-son ma'lumotnomasi) natijada qarindoshlik nomlari tahlilidan foydalanish asosida loyiha bo'yicha bajarilgan tadqiqotning tadqiqotning ilmiyligi ortgan;

qarindoshlik ma'nolarining mikroqurilma va medioqurilma xarakteridagi lug'aviy-mazmuniy variantlari "Istiqbol" loyihasida inson faoliyatining qarindoshlik nomlarida aks etishi va ularning nominatsiya qonuniyatlarini yoritishda foydalanilgan (O'zR Milliy univarsiteti vazirligining 2022-yildagi № 01/22-son ma'lumotnomasi). Natijada qarindoshlik nomlarining lug'aviy-mazmuniy variantlaridan foydalanish asosida loyiha bo'yicha bajarilgan tadqiqotning mukammallashishi uchun manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy maqola maqomidagi 14 ish nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Lug'aviy suppletivizm va unga yondosh hodisalar**" deb nomlangan birinchi bobida suppletivizmning lisoniy talqini, xususan, lug'aviy suppletivizmning ilmiy-nazariy asoslari, ularni tashkil qiluvchi lug'aviy birliklar o'rtasidagi mantiqiy assotsiatsiyasi hamda suppletivizm va geteronimiya tushunchalarining o'xshash va farqli xususiyatlari yoritilgan.

Tilshunoslikda bir so'zning grammatik shakllarini har xil so'z o'zaklaridan yasash hodisasi suppletivizm deyiladi. "Suppletiv yo'l bilan grammatik

ma'noni ifodalash deganda, biz o'zaro bog'langan, ma'lum bir sistemani tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida mustaqil so'zdan foydalanish usulini tushunamiz"⁸. Bugungi kun tilshunosligida bu hodisa, asosan, hind-evropa tillari materiallari doirasida o'rganilgan bo'lib, turkiy tillar lisoniy talqinida monografik planda maxsus o'rganilmagan. Ayrim ishlar⁹da esa, suppletivlik morfologik aspektda, ayni bir so'zning so'z o'zgarishi paradigmasidagi oppozitiv shakllari tarzida talqin etilgan (Masalan, "men" olmoshining ko'plik shakli "biz", "sen" olmoshining ko'pligi "siz" kabi).

Suppletivizm keng va tor ma'nolarda talqin etiladi. Tor ma'noda u so'zning grammatik (morfologik) o'zgarishini bildiradi. Suppletivizm keng ma'noda lug'aviy sinonimiya va antonimiya tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Professor A.A.Reformatskiy suppletivizmga izosemiyaning bir ko'rinishi sifatida keng ma'noda qarab, bir grammatik shakl doirasidagi ikki har xil o'zakli yoki ikki har xil asosli lug'aviy birliklarni suppletivlar deb ataydi. Olim qo'shimchalari har xil fonetik shakl bilan farq qilib, ayni bir grammatik ma'noni bildirgan bir xil o'zakli shakllarni ham suppletivlar deb hisoblaydi. U suppletiv birliklarni "*o'zak suppletivizm*" («супплетивный корень») va "*asos suppletivizm*" («супплетивная основа») kabi ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga *человек-люди, ребёнок-дети*; ikkinchi guruhga esa, *продовец-продовщица* kabi paradigmatic qatorlarni kiritadi. A.A.Reformatskiyning tadqiqotlarida "suppletivizm" atamasi: a) so'z o'zgarishi tizimida ikki har xil o'zakli lug'aviy birliklarning bir umumiy grammatik ma'noga ega bo'lish imkoniyati; b) so'z o'zgarishi tizimida ikki har xil asosli lug'aviy birliklarning bir umumiy ma'noga ega bo'lish imkoniyati¹⁰ kabi talqin etiladi. Tilshunos olimlar V.M.Solntsev¹¹ va L.S.Barxudarovlarning suppletivizm tushunchasi haqidagi qarashlari ham A.A.Reformatskiyningidan deyarli farq qilmaydi¹².

Tilda suppletiv birlik(shakl)larning paydo bo'lishi lisoniy ramz(ishora)larning ifodalanuvchi bilan aloqadorligiga xos hodisa hisoblanadi. Ikki har xil ramz(ishora)dan ayni bir ma'noni ifodalash uchun foydalanish imkoniyati suppletiv birliklar yordamida amalga oshadi. Bu hol tilning lug'aviy sathiga xos sinonimiya hodisasi uchun ham xosdir. Fonetik ko'rinishi o'xshash shakllar invariant birliklarning amaldagi real variantlari hisoblanadi. Fonetik shakli noo'xshash birliklar esa, til sistemasida suppletiv variantlar yoki alternantlar (rus tilidagi *иду-шёл, человек-люди, хорошо-лучше* kabi) hisoblanadi¹³.

A.R.Budagov o'z tadqiqotlarida suppletivizm keng doirada o'rganib, bir xil o'zakli juftlarning fonetik o'zgarishi tufayli har xil tovush qobig'iga aylanishi(divergensiyasi)ni ham suppletivizmga aloqador hodisa sifatida qaraydi¹⁴.

⁸ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Darslik. Toshkent, 2009. –B. 60.

⁹ Кузнецов А.М. Сопоставительно-типологический анализ терминов родства английского, датского, французского и испанского языков. // В кн. Синхронно-сопоставительный анализ языков разных систем. – М.: Наука, 1971. –С.269-277.

¹⁰ Реформатский А.А. Введение в языковедение. М., 1967. –С.312.

¹¹ Содикков А., Абдуазизова А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –С.40-41.

¹² Содикков А., Абдуазизова А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –С.40-41.

¹³ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. М., 1977. с-298, Ярошевский В.Г. Ассоциация // *Философская энциклопедия. М, 1980, том 1.* –С. 53-69.

¹⁴ Будагов Р.А. Введение в науку о языке. –М., 1965. –С. 47-56.

A.R.Budagovning bu fikri o‘zbek tilidagi ayrim leksik birliklarda ham uchraydi. Masalan, lug‘aviy sathda suppletiv birliklar hisoblanuvchi *burilish* va *muyilish* leksemalari (birlashtiruvchi, ya’ni integral integral semasi *qayrilish, egilish*) aslida ayni bir o‘zakdan hosil bo‘lgan. “*Burilish*”ning “*muyilish*” shaklidagi o‘zgarishi “b” tovushining “m” tovushiga, “r” tovushining “y” tovushiga almashishi tufayli sodir bo‘lgan, ya’ni: *burilish—muyilish*.

V.B.Lopatin suppletivizmni ayni bir lug‘aviy birlik(so‘z)ning har xil o‘zakli variantlari deb hisoblaydi. Bunday suppletiv muqobillarning o‘zak morfemalari fonetik jihatdan noo‘xshash bo‘ladi va ular ayni bir morfemaning allomorflari maqomida birlasha olmaydi. Shunga ko‘ra, an‘anaviy talqindagi *человек-люди, ребёнок-дети* singari juftlar suppletivlar deb qaralgan¹⁵. Suppletivizmni ayni shu talqini rus tili grammatikasining 1990-yil nashriga ham kiritiladi¹⁶.

Dissertatsiyada O.S.Axmanova¹⁷, D.E.Rozental va M.A.Telenkova¹⁸ kabi tilshunoslarning ham suppletivizm haqidagi fikrlariga e’tibor qaratiladi.

V.G.Admoni suppletivizmni har xil o‘zakli shakllarning oppozitiv munosabatidan vujudga keluvchi hodisa sifatida talqin etadi va “qarama-qarshilik munosabati”ning asosiy birligi sifatida qaraydi. Uning e’tirofiga ko‘ra, gap bo‘laklarining o‘ziga xos tizimlilik xususiyati suppletivizm hodisasining mavjudligi va uning sintaktik sathdagi ifodasi bilan belgilanadi¹⁹.

O.Espersen(1921), Sh.Balli(1955) kabi g‘arb tilshunoslari suppletivizm hodisasi va uning ifodasini tilning so‘z yasalishi sathida o‘rganadilar. Bu kabi yondashuv rus tilshunoslari N.A.Melchuk, Yu.D.Apresyan²⁰ va V.P.Konetskaya²¹larning tadqiqotlarida ham ko‘zga tashlanadi.

Yu.D.Apresyan ishlarida suppletivizm so‘z yasashning affiksatsiyaga o‘xshash usullaridan biri sifatida qaraladi. Unda yasovchi (motivlanuvchi) asos bilan yasalma – derivatlarning o‘zaro bog‘lanishi (ya’ni suppletiv juftlarning o‘zaro munosabati) amaldagi ayni bir mushtarak o‘zakka ega bo‘lgan yasovchi(motivlanuvchi) asos va yasalma – derivatlar munosabati(bog‘lanishi) ko‘rinishida namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Yu.D.Apresyaning suppletiv usulda so‘z yasalishi haqidagi qarashlari o‘zbek tilining ayrim leksik birliklari yasalishida ham ko‘rinadi. Masalan, o‘zbek tilida hayvonlarning jins semasiga ko‘ra farqlanuvchi ayg‘ir-biya(ot leksema-giperonimining giponim va ekvonimlari), novvos-g‘unajin, ho‘kiz-sigir (qoramol leksema-giperonimining giponim va ekvonimlari), qo‘chqor-sovliq (*qo‘y* leksema-gipreonimining giponim va ekvonimlari); ularning yosh semasiga ko‘ra farqlanuvchi *ot-toy, sigir-buzoq, echki-uloq, tuya-bo‘taloq, it-kuchuk* kabi juftliklarini hosil qiluvchi so‘zlar biri boshqasiga nisbatan suppletiv lug‘aviy birliklardir. Semantik so‘z yasash tizimiga

¹⁵Лопатин В.М. Супплетивизм // Русский язык. Энциклопедия. –М., 1969. –С.130; 504.

¹⁶Русская грамматика . Ч. 11, –М., 1990. –С. 130; 503.

¹⁷Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. –С. 97-98.

¹⁸Розентал Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М.: Москва: “Просвещение”, 1976. –С.476.

¹⁹Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. –М., 1988. –С.91-92.

²⁰Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. –М., 1974.– С.49-62.

²¹Конецкая В.П. Супплетивизм в германских языках. –М., 1973. – 124 с.

mansub bunday misollarni istagancha keltirish mumkin, Chunonchi, ish-harakat hamda ish-harakat ob'ekti (ba'zan sub'ekti) semalari, shuningdek, leksik-morfologik kategoriyalari bilan farqlanuvchi *ushlamoq-qo'l*, *eshitmoq-quloq*, *gapirmoq-til*, *davolamoq-tabib*, *davolamoq-bemor*, *davolamoq-dori* singari juftliklarda ko'zga tashlanuvchi aloqadorlikni ko'rish mumkin. Garchand *suppletivizm* atamasi ishlatilmagan va so'z yasashning suppletiv usuli deyilmagan bo'lsa ham, yangi so'zlar hosil bo'lishidagi bunday jarayon professor I.Qo'chqortoyev tomonidan ham e'tirof etilgan. U bu haqda shunday yozadi: "Affiksatsiya o'zbek tilida leksik-grammatik derivatsiyaning yagona yo'li emas... Metafora va metonimiya tilda ikkilamchi nominatsiyalar hosil qilishning eng mahsuldor usullaridir. Bu usullar yordamida tilda mavjud leksik birliklarga ma'nodosh yangi lug'aviy birliklar vujudga keladi. Masalan, *tulki* so'zi ma'lum vaziyatda *ayyor* so'zining o'rnida, *asal* so'zi *shirin* so'zining o'rnida qo'llanishi mumkin"²².

Lug'aviy sathga xos suppletivlar ham leksik-semantik sistemaning parasemiya kategoriyasiga mansub hodisalar hisoblanadi. Ularni, shartli ravishda, parsemantlar deb ham atash mumkin. Negaki, lug'aviy suppletivizm ham ma'lum darajada ma'no yaqinligiga ega bo'lgan har xil lug'aviy birlik(leksema)larning lisoniy jihatdan o'zaro aloqadorligi mavjud. Lug'aviy suppletivizmlarning belgilanishida ham ma'lum bir semalarning umumiy kategorial xususiyatlari hisobga olinadi.

Lug'aviy giponimiya doirasida birlashuvchi lug'aviy birliklar o'rtasidagi mantiqiy assotsiatsiya lug'aviy suppletivizm paradigmasini tashkil qiluvchi lug'aviy birliklarning o'zaro mantiqiy assotsiatsiyasiga nisbatan kuchsiz bo'ladi, ular umumiy bir kategorial semaga birlashmaydi. Giponimiya paradigmasini tashkil qiluvchi lug'aviy birliklar o'zaro bir arxisemaga bog'lanadi. Bu arxisema giponimik birliklarni uyushtiruvchi, o'zaro bog'lovchi yetakchi lug'aviy birlik, ya'ni *giperonimlarning* lug'aviy ma'nosi hisoblanadi.

Dissertatsiyada lug'aviy suppletivizmning lug'aviy sinonimiya bilan o'xshash va farqli xususiyatlari haqida ham ilmiy asosli ma'lumot beriladi. E'tirof etilishicha, sinonimiya paradigmasini tashkil qiluvchi lug'aviy birliklarda ularni o'zaro farqlovchi differentsial semalar nisbatan kuchsiz bo'ladi. Shu bois sinonim muqobillarning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo'ladi. Masalan, *Gulnora juda chiroyli qiz//Gulnora nihoyatda go'zal qiz//Gulnora o'ta suluv qiz (juda//nihoyatda//o'ta; chiroyli//go'zal//suluv)*.

Suppletiv lug'aviy birliklarda ularni farqlovchi differentsial semalar aniq va kuchli bo'ladi. Masalan, *g'unojin* va *novvos* suppletiv leksemalarini oladigan bo'lsak, ular o'zaro "jinsdagi farq (erkaklik va urg'ochilik)" semasiga ko'ra farq qiladi; shu so'zlar ma'nosidan anglashuvchi denotatlar esa(*g'unojin*, *novvos*) "yosh qoramol" bo'lganligi uchun, ayni shu sema ("yosh qoramol") bu ikki lug'aviy birlik semantik qurilishi uchun mushtarak, ya'ni integral sema hisoblanadi.

²²Кучкортоев И. Луғавий синонимик воситалар ва уларнинг асосий турлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, № 4. –76.

Dissertatsiyada ayrim lug‘aviy suppletivizmning so‘z yasashning tashqi usuli bilan aloqador xususiyatlari ham yoritilib, bu fikrlar “davola(n)moq” va “dori” so‘zlarining o‘zaro suppletivizm ekanligi bilan dadillanadi. Ularning biri (davolamoq) fe‘l turkumiga, ikkinchisi (dori) esa, ot turkumiga mansub lug‘aviy birliklar ekanligi qayd etiladi.

Tadqiqotda “suv” so‘zi va uning suppletiv muqobillari yordamida “suppletiv valentlik” tushunchasi haqida ham ma‘lumot beriladi. Bu so‘z(ya‘ni *suv*), *yuvinq* (*suv* va *yuvinq*), *cho‘milinq* (*suv* va *cho‘milinq*) va *kechinq* (*suv* va *kechinq*: *suv* *kechinq*) so‘zlaridan tashqari, *jilg‘a*, *ariq*, *ko‘l*, *soy*, *buloq*, *hovuz*, *daryo*, *dengiz*, *okean* sigari lug‘aviy birliklar bilan ham suppletiv aloqada bo‘ladi: *suv* va *jilg‘a*, *suv* va *ariq*, *suv* va *ko‘l*, *suv* va *soy*, *suv* va *buloq*, *suv* va *hovuz*, *suv* va *daryo*, *suv* va *dengiz*, *suv* va *okean* kabi.

Lug‘aviy suppletivlar, til lug‘at tarkibidan tashqari, tilning frazemalar tizimini boyitishda ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, *bir og‘iz gap*, *ipidan ignasigacha*, *ipga tizmoq*, *izga tushmoq*, *yo‘ldan chiqmoq*, *yuziga qaramoq*, *yo‘liga yurmoq*, *suv qilib ichmoq* singari bir qator frazeologik iboralar tarkibining *og‘iz gap*, *ip igna*, *ip*, *tizmoq*, *iz tushmoq*, *yuz qaramoq*, *yo‘l yurmoq*, *suv ichmoq* singari komponentlari biri boshqasiga nisbatan suppletiv lug‘aviy birliklar(leksemalar) hisoblanadi.

Xullas, suppletiv til birliklarining ifoda planiga xos turlari ham, mazmun planiga xos turlari ham qarindoshlik va yaqinlik m‘nolarini bildiruvchi atama va so‘zlar tizimida juda ko‘p uchraydi.

Dissertatsiyada lug‘aviy suppletivizmlar hosil bo‘lishining qarindoshlik atamaları tizimi uchun ham tegishli bo‘lgan besh yo‘li haqida ma‘lumot beriladi.

Lug‘aviy suppletivizm sanalgan grammatik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan har xil o‘zakli lug‘aviy birliklarning korrelyativ xususiyatlari geteronimiya tushunchasi bilan mantiqiy va lisoniy jihatdan o‘xshashdir. Umumlisoniy jihati shundaki, o‘zaro aloqador qismlarning korrelyativ mosligi umumiy assotsiatsiyaga asoslangan bo‘ladiki, bu hol ular(qismlari)ning bir lisoniy butunlik doirasida ham mantiqiy va ham grammatik jihatdan tez va oson birikuviga imkon yaratadi. V.G.Konetskaya geteronimik munosabatlar haqida shunday yozadi: “geteronimik munosabat ... geteronimiya geterogen birliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri toifali va differentsial xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida tizim munosabatlariga kirishi – deb atash tavsiya etiladi ..., chunki bu atama o‘zaro bog‘liq " geterogen" xususiyatlarni yaxshiroq aks ettiradi.”²³. V.G.Konetskayaning geteronimiya va geteronimik munosabatlar haqidagi bu fikri o‘zbek tilining qarindoshlik ma‘nosini bildiruvchi atamaları tizimiga mansub lug‘aviy birliklararo lisoniy-semantik aloqalar bilan ham isbotlanadi. Masalan, *ota* atamasi *bobo(ota-bobo)*, *ona(ota-ona)*, *bola (ota-bola)* atamaları bilan ana shunday munosabatda bo‘ladi: *ota-bobo*, *ota-ona*, *ota-bola*. Demak, suppletiv lug‘aviy birliklarning bir paradigma doirasida birikuvi uchun geteronimik munosabatning bo‘lishi shart va zarur hisoblanadi.

Geteronimik munosabatlarning suppletivizmga yondosh mantiqiy-lisoniy hodisalardan biri ekanligi shundaki, fonetik-fonologik qurilishi har xil o‘zak va

²³Конецкая В.Г. Супплетивизм в германских языках. –М.: Наука, 1973. –С. 15.

har xil asosli lug‘aviy birliklarning o‘zaro mantiqiy-lisoniy munosabatlaridan geteronimik paradigmalari hosil bo‘ladi.

Funksional-semantik mikrosistemaning *bobo* atamasi bilan ifodalangan korrelyativ a‘zosi *ota, ona, farzand//bola* so‘zlari bilan umumiy bir kategorial ma’noga ko‘ra, ya’ni qarindoshlikning vertikal chiziq turiga mansubligiga ko‘ra, mushtarak xususiyatga ega bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Suppletiv munosabatlar vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimida**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida suppletiv aloqa asosida shakllanuvchi funksional-semantik mikroparadigmalari: a) har ikki korrelyati erkaklar jinsiga mansub qarindoshlik ma’nosini bildiruvchi; (*ota –bobo, ota-bola(ugil,)*); b) har ikki suppletiv korrelyati ayollar jinsiga mansub qarindoshlik ma’nolarini bildiruvchi; (*buvi-ona, ona-bola(qiz)*); v) suppletiv korrelyatlaridan biri erkaklar, boshqasi ayollar jinsiga mansub qarindoshlik ma’nolarini bildiruvchi *ota –ona, bobo-buvi(chol-kampir)* singari guruhlarga ajratiladi.

Shuningdek, vertikal chiziq qarindoshlik ma’nolarini bildiruvchi atamalar: a) suppletiv korrelyatlarining “yoshdagi farq”ga ko‘ra xususiyatlari (farq qiluvchi; farq qilmaydigan: *ota-bola, ona-bola*); b) mikroparadigmaning suppletiv korrelyatlarining “jinsdagi farq”ga ko‘ra xususiyatlari (farq qiluvchi, farq qilmaydigan) ko‘ra ham guruhlangan va *ona-bola(o‘gil), aka-singil, opa-uka; ota-bola(o‘gil), ona-bola(qiz), aka-uka, opa-singil* kabi juft so‘zlar va ularni hosil qiluvchi korrelyatlar tahlili bilan dalillangan.

Vertikal chiziq qarindoshlik ma’nolari tizimining markazini “farzandni dunyoga keltiruvchi erkak” tashkil qilib, uning ifoda planida “ota” so‘zi invariant lug‘aviy birlik hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli qomuslarida “ota” leksemasi A.Qodiriy qalamiga mansub “*Siz otamisiz, nimasiz, axir, o‘g‘lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi?*” (“O‘tgan kunlar”) gapi misolida uning ma’nosi “o‘z bolalariga nisbatan “farzandli, bola-chaqali erkak kishi” sifatida tavsiflanadi.

“*Ona*”, “*bola*”, “*bobo*”, “*buvi*” leksemalari bilan qarindoshlikning turlicha tur va bosqichlarida suppletiv munosabatga kirishuvchi “ota” umumturkiy lug‘aviy birlik sifatida, E.V.Sevortyaning mashhur “Turkiy tillar etimologik lug‘ati”²⁴da (ESTYa) *ata* va *akka* shakllarida ham uchrovchi, “*ota*”dan tashqari, “*otaning otasi*”(дед по отцу), “*otaning akasi*” (дядя: amaki), “*aka*”(старший брат), “*utuman erkak*”(самец), “*er va xotinning otasi*”(свёкр, тесть: qaynota), “*tutingan ota*”(крёстный отец) singari bir qator ma’nolarda qo‘llanishi haqida ma’lumot beriladi.

“Ota” leksemasi, A.A.Guxmanning e’tirofiga ko‘ra, dastlab *tata* shaklida vujudga kelgan. O‘zbek tilining ko‘pchilik shevalarida qo‘llanadigan *dada* A.A.Guxman e’tirofidagi “*tata*” ning fonetik varianti hisoblanadi. Dialektal xususiyatga ko‘ra, xususan, Toshkent va unga yaqin hududlarda bu so‘zning birinchi tovushi “d”ning talaffuzda tushib qolishi natijasida “*ada*” tarzda ifodalanadi.

²⁴Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1977. –С. 200.

“Farzandni dunyoga keltiruvchi erkak” ma’nosi “Qadimgi turkiy lug‘at”da (“Drevnetyurkskiy slovar”da) *ata*, *vava (baba)*, *dada*, *dan (kang)*²⁵ shakllarida berilganki, ulardan *aba*, *hama* kabilari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ham uchraydi²⁶.

Adabiy til nuqtayi nazaridan invariant lug‘aviy birlik sanalgan “ota” leksemasi, turli darajadagi qarindoshlik semasiga egaligi jihatidan, ko‘p ma’noli va ko‘p vazifalidir. Uning “farzandni dunyoga keltiruvchi erkak” ma’nosi adabiy tilda ham, ayrim shevalarda ham invariant semantik birlik hisoblanadi.

“Ota” leksemasi, “farzandni dunyoga keltiruvchi erkak” ma’nosiga ko‘ra, *bobo(ota, bobo)* va *o‘g‘il(ota, o‘g‘il)* leksemalari bilan barqaror suppletiv lug‘aviy birlik sifatida, ular bilan geteronimik munosabatda ham bo‘ladi va *ota-bobo*, *ota-o‘g‘il* juft so‘zlari hosil bo‘ladi.

“Ota” leksemasining suppletiv valentligi, shu valentlikka tortiluvchi lug‘aviy birliklarning assotsiatsiyasiga ko‘ra: a) kuchli assotsiatsiyali; b) kuchsiz assotsiatsiyali kabi ikki guruhga bo‘linadi.

“Ota” leksemasining kuchli assotsiatsiyali suppletiv valentligi “bobo”(ota-bobo), “ona” (ota-ona) va “bola” (ota-bola) leksemalari bilan kuchsiz assotsiatsiyali suppletiv valentligi “amma” (*ota-amma*), “amaki” (*ota-amaki*) yuzaga chiqadi.

Ota va *bobo* leksemalari giperonim xarakteridagi *a j d o d* leksemasining giponimlari hisoblanadi. Bu ikki leksemaning ma’no qurilishida *qarindosh*, *qondosh*, *ajdod*, *katta yosh*, *erkak jinsida* singari semalar mavjud. *Bobo* sememasida “*ota yoki onaga nisbatan ota*” semasi ham mavjudki, ayni shu semaga ko‘ra, *ota* va *bobo* leksemalari o‘zaro farqlanadi va shu farq asosida ular *ekvonimlar* ham hisoblanadi.

Ota so‘zining kuchli assotsiatsiyaga asoslangan suppletiv valentligi tufayli vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimida korrelyativ a’zolaridan biri vazifasini *bobo*, *bola*, *ona* leksemalari bajaruvchi funktsional-semantik mikrotizimlar ham shakllanadiki, bu mushtarak semalar (integral semalar) bilan bir qatorda, ularning mustaqil leksema, mustaqil semema maqomini belgilovchi farqlovchi(differentsial) semalar ham mavjud bo‘ladi. Masalan, *ota* va *bobo* funktsional-semantik mikrotizimi korrelyatlarida *yoshga ko‘ra farq (otaning bobodan kichikligi)* semasi mazkur funktsional-semantik mikrotizimni tashkil etuvchi korrelyativ a’zolari o‘zaro farqlovchi differentsial semadir.

“Ota” leksemasi shevalarda “vertikal chiziq qarindoshlik”ka xos “ota va onani dunyoga keltiruvchi erkak” (“bobo”) ma’nosida ham ishlatiladi. Ota va bobo maqomidagi shaxslar bir oilada uning a’zolari sifatida yashaganda, shu oila farzandlari (boboning nabiralari) otalariga *aka*, *dada*, bobolariga esa, *ota* (ba’zi shevalarda: *katta*, *katta ota*) deb murojaat qiladilar.

“Bobo” leksemasi va uning suppletiv imkoniyatlari

²⁵Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969, –С. 65,76, 160, 419.

²⁶Девону лугатит турк. Индекс. Т., 1966, –С. 10, 318.

“Bobo” “ota va onalarni dunyoga keltiruvchi erkak” ma’nosi bilan vertikal chiziq qarindoshlik ma’nosi tizimiga mansub atamalardan biridir (*Bobom burgut boqish bilan menga qaradilar .S.Ahmad*).

O‘zbek tilida “ota va onani dunyoga keltiruvchi erkak” ma’nosida *bobo*, *buva*, *ota*, *katta ota* leksemalari ishlatilib, uning *bobo* muqobili invariant lug‘aviy birlik maqomida adabiy til uchun, qolganlari esa, o‘zbek tilining turli shevalari uchun xoslangan. Shuni aytish lozimki, o‘zbek adabiy tilida “otaning otasi” va “onaning otasi” tushunchalarini anglatish uchun “bobo” leksemasi olingan bo‘lsada, bu so‘z vertikal chiziq qarindoshlik ma’nosi tizimida alohida-alohida sememalarni tashkil etadi.

“Bobo” vertikal chiziq qarindoshlikning “*otaning otasi*” va “*onaning otasi*” kabi ikki tushunchani ifodalash uchun qo‘llanganda, uning birinchi ma’nodagi muqobili “*amaki*”, “*amma*”; ikkinchi ma’nodagi muqobili esa, “*tog‘a*”, “*xola*” so‘zlari bilan kuchsiz assotsiatsiyaga asoslangan suppletiv munosabatda bo‘ladi, ya’ni:

- a) “*bobo-amaki*” (“*amaki*” boboning o‘g‘li ma’nosida); “*bobo-amma*” (“*amma*” boboning qizi ma’nosida);
- b) “*bobo-tog‘a*” (“*tog‘a*” boboning o‘g‘li ma’nosida); “*bobo-xola*” (“*xola*” boboning qizi ma’nosida).

O‘zbek tilining ayrim shevalarida “*ota va onaning otasi*”, ya’ni “bobo” so‘zi o‘rnida “*katta*” (“*katta ota*”ning qisqargan shakli) so‘zi ham ishlatiladi. “*Katta*” so‘zining semantik qurilishida ham “ota va onaning otasi” ustuvor sema xarakteriga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida *bobo*, *buva* leksemalari anglatgan invariant ma’nolar ayrim shahar va qishloq shevalarida, *katta ota*, *katta dada*, *opoq dada*, *bobokalon* singari so‘z birikmalari bilan ham ifodalanadi. “*Bobokalon*” o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “*bobo va buvining otasi*” (“*katta bobo*”) ma’nosini bildiradi. Shuningdek, “*bobo va bobokalonlar*” shaklidagi atama ham mavjudki, u, umuman, “erkak jinsidagi ajdodlar” ma’nosini bildiradi.

“*Bobo*” leksemasining ma’nolaridan birini anglatuvchi “*ajdod*” leksemasi “*nabira*”, “*evara*”, “*chevara*” va boshqa ma’nolarni o‘z ichiga olgan “*bola-chaqa(lar)*” kompoziti bilan giponim sifatida kuchsiz assotsiatsiyaga asoslangan suppletivlik munosabatiga ega bo‘ladi: *bobo-bola-chaqa*.

“Bobo” so‘zining dastlab qaysi tilda paydo bo‘lganligi ham fan uchun ahamiyatlidir. E.V.Sevortyan “bobo”so‘zining genezisini arab tilida “ota”//“dada” ma’nosida paydo bo‘lgan بوبو leksemasi bilan bog‘laydi va uning mo‘g‘ul va turk tiliga aloqadorligini inkor etadi²⁷.

E.V.Sevortyaning bu fikri tillar paydo bo‘lishining “bolalar tili” deb ataluvchi gipotezasi tomonidan ham tasdiqlanadi. Qarindoshlik atamalari tizimiga xos “*ma-ma*”(o‘zbek va boshqa turkiy tillarda: “*mo-ma*”), “*dya-dya*” (“*da-da*”) va h.k. so‘zlar, shu jumladan, “*aka*”, “*amaki*” so‘zlari ma’nosida ishlatiluvchi “*ova*”(“*oba*”) “*bobo*” so‘zi bosh tovushining tushib qolishidan hosil bo‘lgan

²⁷Севортян Э.В. Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общeturкские основы на гласные. –М.: Наука, 1977. –С. 13.

(turkiy tillarning ayrimlarida “*aba*”, “*ava*” shakllarida uchraydigan soʻzlar ham, shubhasiz, “*baba*”//“*bobo*”dan tarqalgan).

Xullas, “*bobo*” leksemasi “*ota*” leksemasi bilan tarixan maʼnodosh, vazifadosh boʻlishidan tashqari, u bilan giponimik, ham geteronimik munosabatlarda bogʻlanuvchi lisoniy jihatdan lugʻaviy birlikdir.

“Ona” leksemasi va uning suppletiv imkoniyatlari

Jahonning barcha xalqlari tillarida “farzandni dunyoga keltiruvchi ayol” maʼnosini bildiruvchi lugʻaviy birlik til lugʻat sostavining faol ishlatiluvchi qatlamiga tegishli boʻladi.

Oʻzbek tili va uning shevalarida “farzandni dunyoga keltiruvchi ayol” maʼnosidagi *ona*, *ena*, *oyi*, *aya* // *oya*, *buva*, dial. *opa* // *apa*, *ocha* soʻzlari paradigmatic qatorida “*ona*” adabiy til uchun meʼyoriy invariante lugʻaviy birlik hisoblanadi. Shuningdek, mazkur paradigma arab tilidan oʻzlashgan *valida*, fors-tojik tilidan oʻzlashgan *modar* soʻzlari hisobiga ham kengayadi²⁸.

“*Ona*” leksemasining semantik qurilishida “jinsga xos farq” semasi neytrallashgan *bola* soʻzi bilan barqaror suppletiv aloqada giponimik va geteronimik munosabatlarga kirishadi (“*ona-bola*”). Shuningdek, *ona* leksemasi kuchli assotsiatsiya taʼsirida *ota* soʻzi bilan ham barqaror suppletiv aloqada geteronimik munosabatda boʻladi, yaʼni “*ota-ona*”.

“*Ona*” leksemasi kuchsiz assotsiatsiya taʼsirida *xola* (*ona*, *xola*), *togʻa* (*ona*, *togʻa*) soʻzlari bilan ham giponimik xarakterdagi suppletiv munosabatga kirishadi.

Dissertatsiyada “*ona*” (“*ena*”) soʻzining etimologiyasi haqida ham maʼlumot beriladi: oʻzbek tilidagi “*ona*” soʻzining fonetik muqobili boʻlgan “*ena*” umumbashariy lugʻaviy birlik sifatida sanskrit, lotin, got, eski slavyan, qadimgi rus tillarida “*ona*” maʼnosida ishlatilgan *gino*, *gens*, *genna*, *žena* (*jena*) soʻzlari bilan “*tubdosh*” degan xulosa chiqariladi.

“Buvi” leksemasi va uning suppletiv imkoniyatlari

“*Buvi*” soʻzi va uning boshqa tillarga xos funktsional-semantik ekvivalentlari “*ota* va *onani* dunyoga keltiruvchi ayol” maʼnosi bilan umumbashariy tavsif kasb etadi. “*Buvi*” leksemasining maʼnosi “*buvi* farzandlarining farzandi” maʼnosidagi “*nabira*” soʻziga nisbatandir. Masalan, *Mungli koʻzlari mehrga toʻla bu nozik kampir Shukurovga marhum buvisini eslatadi* (*O.Yoqubov, Diyonat*).

Oʻzbek tilida *buvi*, *ena*, *moma*, *bibi*, *katta*, *ona*, *ocha* leksemalarini oʻz ichiga olgan paradigma “*ota* va *onani* dunyoga keltiruvchi ayol” maʼnosining ifoda planini tashkil etadi. Mazkur paradigmada “*buvi*” leksemasi shu paradigma doirasidagi boshqa leksemalarga nisbatan invariant maqomidagi lugʻaviy birlik sanaladi. “*Buvi*” anglatgan shaxsning “*ota* yoki *onaga* qarashlilik” oʻzaro ekvoniim va giponimlar xarakteridagi : a) “*ota(m)ning* (yoki *dadamning*) *onasi//oyisi*”; b) “*ona(m)ning* (yoki *oyimning//ayamning*) *onasi//oyisi*” soʻz birikmalari vositasida anglashiladi. Oʻzbek tilining ayrim shevalarida “*Buvi*” soʻzi oʻrnida “*moma*”

²⁸Mahmud Qoshgʻariy lugʻatida “farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazuvchi ayol” maʼnosida “*aka*”, “*aba*” soʻzlari ham ishlatilgan. “Tungus-manchjur tillari qiyosiy lugʻati”da (“Словарь тунгусо-манчжурских языков”) mazkur maʼnoda “*meme*”, “*mamene* *meme* > *ene*” soʻzlarining ishlatilganligi qayd etiladi.

soʻzi ham ishlatiladi. Bunday holatda “*buvi*” va “*moma*” soʻzlari oʻzaro sinonimiya sathiga xos suppletivlar hisoblanadi. “*Moma*” soʻzining umumbashariy etimologiyasi haqida dissertatsiyada batafsil maʼlumot beriladi.

